

ADABIYOTDA RANGNING BADIY TALQINI

Nigoraxon Hoshimova,
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Adabiyot – so‘z orqali jamiyki insoniyatni tarbiyalovchi asosiy vosita. Yaxshi so‘z jon ozig‘i deganlaridek, adabiyot ham o‘z jozibadorligi bilan qalblarga go‘zal hissiyotlarni singdiradi. Matnning ichiga singib borgan sari kitobxon undagi ko‘z ilg‘amas mo‘jizadan hayratlanadi. Mana shu mo‘jizaning yuzaga chiqishi uchun esa obrazlilikni ta‘minlaydigan badiiy so‘zning o‘rni beqiyosdir. Har bir tasvir vositasi o‘zi ifodalagan ma‘no bilan asosiy g‘oyaning yanada boyitilishiga xizmat qiladi. Badiiy asarda qo‘llanadigan turli-tuman timsollar, jumladan, qushlar, osmon jismlari, o‘simlik olami, hayvonot olami, rang va boshqalar unsurlar poetik sifatida muhiy estetik qiymatga egadir. Mana shunday unsurlardan biri turi rang -tasviri bilan bog‘liq ifodalardir. Rang badiiy asarlarda inson ruhiyatini, tabiat manzarasini, qahramonlarning tashqi ko‘rinish tasvirini berishda foydalaniladigan asosiy badiiy timsoldir. Karami keng Tangri DUNYO atalmish xilqatni yaratganda unga turfa xil rangni tuhfa etib uni jiloli qilib bezadi. Ranglardan xalq og‘zaki ijodida ham keng qo‘llanilgan. Xususan, maqollarda ham ranglar ishtirokiga guvoh bo‘lamiz, masalan, “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” maqoli yomon insonning yomonligi o‘ziga emas, atrofdagilarga yuqadi, degan ma‘noda kelgan bo‘lib, qozonning qoraligi ichi qora insonga o‘xshatiladi. Shundan kelib chiqib, qora rang yaratilganidan qabihlik, zulmat, yomonlik timsoli sifatida anglashilgan. Xalq og‘zaki ijodining fundamentini tashkil etuvchi ertaklarda ham ranglardan unumli foydalanilgan. Xususan, barchaga tanish bo‘lgan, sevimli ertakka aylangan “Zumrad va Qimmat” ertagini olaylik. O‘zining xushfe‘lligi, go‘zal axloqi, mukammal iymoni bilan sehrgar kampirning ham ko‘nglini olgan, uning muhabbatiga sazovor bo‘lgan Zumradga ezgu amallari uchun kampir tomonidan oq sandiq (ba‘zi namunalarda qizil) beriladi. Bandalik uchun emas, faqat qorin g‘amini o‘ylash, kun-u tun uxlash, Zumradni va uning otasini haqoratlash bilan o‘tuvchi Qimmatga esa qora sandiq beriladi. Ranglar ertak zaminida yashiringan insonga xos bo‘lgan ijobiy va salbiy xususiyatlarni ochib beradi. Ko‘rib o‘tilganidek, oq – ezgulik; qora – yovuzlik, xudbinlik sifatlarining aksi tarzida beriladi. Mumtoz adabiyotimizdagi g‘azallarda ham oshiq iltiroblarini bildirish maqsadida ranglardan foydalaniladi.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltinni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma, –

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Baytdan ko‘rinib turibdiki, ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltinni yashirib yuboradigan darajada sarg‘ayib ketgan. Yor ishqida oshiq yuzi sariq tus olgan. Oshiq dardining og‘irligi yuzidan ma‘lum.

“Qarolar falsafasi risolasi” asarining muallifi Anbar Otin risolaning birinchi faslida tunda ko‘rinmaydigan qora buyumlar; “aksar Janub va Sharq xalqlari monandi Arab, Eron, Afg‘on, Seylon, Hind va Kashmir”¹ning qora tanli mehnatkash xalqini tasvirlaydi, ularning yuzlari qora bo‘lsa ham, ko‘ngillari oq tanli insonlarning yuzi kabi oq va ma‘rifatli insonlar; kishi husnining asosi ham qora qosh va qora ko‘z haqida aytadi. Ikkinchi faslda esa “farqi qarolar”, ya‘ni qora sochlilarning boshidagi farq haqida bayon qilinib, kishi bolasini ming mashaqqatlar bilan tarbiyalagan ONA ham farqi qarolardan deyiladi. Uchinchi faslda baxtiqarolar haqida so‘zlanadi. Muallif bu faslda baxtiqarolarning kim ekanini ikki xil fikr bilan izohlaydi. Birinchi qarash egalari – din peshvolari “dunyoda faqat mehnat va mashaqqat bilan kun o‘tkuzub, toat va ibodatni maromiga yetkazmagan va yana pir xizmatini munosib qilib, pir yo‘llanmasini olmaganlarni aytishadi”. Ikkinchi qarash Anbar Otinga tegishli: haqiqiy baxtiqarolar “besh kun ko‘rgan umrini rohat bilan o‘tkazish maqsadida ming hiyla va adovatlar bilan ustamonlik qilib, o‘zgalar mehnati bilan davlat to‘plab, obro‘ va boylik hosil qilib, ommaning nafratiga giriftor” bo‘lganlar. (11-sinf Adabiyot darsligi. 1-qism. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2018. 195-b.)² Bunday insonlarning baxtiqaroligi dunyodan o‘tganlardan so‘ng ham hech kim ularni yaxshi nom bilan eslamasliklarida ham. To‘rtinchi faslda zulmat va zulm haqida aytiladi. Zulmat qorong‘ulik, kunning shomdan keyingi qismi. Zulm esa adolatsiz hukm qiluvchi hukmdorlarning, aqlsiz va jafokor insonlarning qilgan amallari. Zulm bor hukmronlik qilgan davlatda ham yorug‘lik bo‘lmaydi. Kunlari ham tunde o‘tadi. Risolada qora rangning xususiyatlari yoritilgan.

“Yer yuzida necha xil rang bor? Abu Rayhon Beruniy o‘zining ‘Kitob al-Javohir – ma‘rifat al-Javohir’ asarida 200 dan ortiq ranglarning nomlarini sanab o‘tganlar va bu ranglarning kelib chiqishini ham yozib qoldirganlar. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirilar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomlarini, hattoki, har birining ramziy ma‘nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba‘zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: alvon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug‘doyrang, bo‘z gulgun, jigarrang, zangori, za‘faran, zumrad, qahrabo, kulrang, ko‘k, lojuvard, lolarang, malla, moviy, moshrang, nafarmon, oq, pistamag‘iz, pistaqi, pushti, sariq, safsar samorang, sur, feruza, o‘choq kesak, qizil,

¹ 11-sinf Adabiyot darsligi. 1-qism. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2018.193-b

² 11-sinf Adabiyot darsligi. 1-qism. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2018.195-b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qirmizi, bayzagul, baqato‘ni...”³ Bu ro‘yxatni davom ettirish ham mumkin. Ko‘pchilik bu ro‘yxatdagi ayrim ranglarning nomlarini xayoliga ham keltirolmasa kerak. Hech bir rang bir-birini takrorlamaydi. Dunyo xalqlarining soni 8 mlrd.ga yetgan bo‘lsa, har kim o‘z rangiga ega. Qora sochli insonlarning soch ranglari bir xil deb o‘ylaysizmi? Yo‘q... Ular o‘zaro farqlanadi. Bu qanday mo‘zija, deb hayron qolasan! Tabiat shu darajada bekamiko‘st yaratilgan. Ranglarning farqlanishiga yana bir isbot Yaponiyada 40 ga yaqin ko‘z turlari o‘zaro farqlanishini keltirsak bo‘ladi.⁴ Ranglarning ramziy ma‘nolari:

1.Sariq rang – quyosh, hayot, muqaddaslik ramziy ma‘nosiga ega. Qadimgi Xitoyliklarda baxt, Yevropada, aksincha, nafratlanish ramziy ma‘nosiga ega. Shuningdek, ayriliq ramzi hamdir.

2. Oq rang xosiyatlari. Oq rang – pokizalik, tozalik, yorug‘lik, baxt, beg‘uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishni anglatgan. Azaldan kishilarimiz yangi uyga ko‘chib o‘tishdan oldin uy ustunlariga va shiftiga un sepishgan. Samarqand viloyati to‘ylaridagi rasm-rusumga ko‘ra, kelinning qo‘lini unga botirishadi. Bu ham momolar aqidasi ko‘ra yangi kelinning kelgusi hayoti shu undek oq, sof, barakali, toza bo‘lsin degan ma‘noda o‘tkaziladi.

3.Kulrang xosiyatlari. Kulrang – sovuqni his qilishga chorlashi, asabni davolashi, qon bosimini tushirishni ta‘kidlaydilar.

4.Yashil rang xosiyatlari. Yashil rang – tabiatni, tabiatning uyg‘onishi, bahor, ishonch ramzi. ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodimonlik timsoli hisoblanadi. Yashil rang deyishimiz bilan xayolan bahorni eslaymiz. Yashillik yozga ham xos. Ammo bahor va yashillikni bir butun sifatida tasavvur qilish ongimizga singishib ketgan. Bu tabiatning yashil rangga kirishi, tabiatning yangilanishini bildiradi. Demak, yashil rang – yasharish rangi.

5.Qora rang xosiyatlari. Qora rang – motam, cheksizlik, qo‘rquv, o‘lim, noaniqlik ramzi.⁵ S.S.Bulatov. Rang psixologiyasi monografiY. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. Toshkent 2020.52. Qora rang ko‘p o‘rinlarda yovuzlik, zulmat rangi deya hisoblansa-da, mumtoz adabiyotda yorning go‘zalligi, qahrining qattiqligi ham shu rang bilan ifodalanadi.

6.Qizil rang xosiyatlari. Qizil rang -- g‘alaba, xursandchilik, shodlik, tiriklik, olov va qon ramzi. U iliqlikni his qilishga chorlaydi, kayfiyatni ko‘taradi. Qizil rang

³ Bulatov S. Rang psixologiyasi monografiY. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. Toshkent 2020.6-bet.

⁴ Bulatov S. Rang psixologiyasi monografiY. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. Toshkent 2020 29-bet.

⁵ S.S.Bulatov. Rang psixologiyasi monografiY. Innavatsion rivojlanish nashriyoti. Toshkent 2020.52.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tiriklik ramzi ham sanaladi. 1-sinf ostonasiga qadam qo‘ygan bolajonlarga Davlat ramzlari tushuntiriladi. Davlat bayrog‘idagi ranglar sharhi keltirilganida qizil rang – tiriklik ramzi, deb uqtiriladi. Haqiqatan ham tiriklik inson qonida qizil rangda vujudga keltirildi... demak, ushbu rangning bosh ma‘nosi tiriklik bo‘lgan, keyinchalik yondosh ma‘nolari paydo bo‘lgan.

7. Moviy rang – tiriklik, mangu osmon, obi hayot, tinchlik, yomon ko‘zdan asrash ramzi. Timsollar tilida bu yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-u shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur bayrog‘ining rangi ham moviy rangda bo‘lgan. Shuningdek, ushbu rangni yoqtiradiganlar tabiatan samimiy, tez kirishuvchan insonlar hisoblanishadi.

Olimning ta’kidlashicha, yuqorida sanalgan 7 ta rang asosiy bo‘lib, qolganlari shu 7 xil rangning aralashuvidan hosil qilinadi. Ranglar asosiy garmoniya hosil qiladigan asarlarni biz juda ko‘p uchratamiz. Yuzlab, minglab hattoki undan ham ko‘pdir bunday asarlarning soni! Ranglar inson hissiyotini so‘zsiz ifodalab beradi. Rassomlarning asarlari musavvir qalbining ko‘rinishidir. Ranglarning soni-yu ma‘nolari haqida avval boshda to‘xtaldik. Endi esa qora rangning xususiyatlariga alohida to‘xtalsak. Qora rang motam, cheksizlik, yovuzlik, qat’iyat ramzi. 747-749-yillarda sodir bo‘lgan Abu Muslim boshchiligidagi qo‘zg‘olon ishtirokchilari qora libos kiyishgan edi. Qora libos qo‘zg‘olonchilar uchun, avvalo, motam ramzi, qolaversa, zabardast kuch bayrog‘i hamda janglarda qo‘zg‘olonchilarni umaviy harbiylardan ajratib turadigan belgini anglatgan. Insonlarning rangga nisbatan munosabati hamilon kabidir. Chunki ular o‘z kayfiyatlarida kelib chiqib rang tanlaydi. Ochiq va issiq rangni sevuvchilar ham yomon holga tushub qolsalar, to‘q va sovuq ranglarga ehtiyoj sezadi. Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasining qahramoni bir chol. Boshidan juda ko‘p savdolar o‘tgan. Umid-la kutgan kunlari yolg‘on-yashiqdan iborat bo‘lib qolgan ushbu inson atrofidagi barchaga shubha bilan qaraydi, odamlarga nisbatan ishonch tuyg‘usini yo‘qotadi. Qalbdagi po‘rtana yoki so‘z bilan yoki rasm bilan yo kuy bilan sirtga chiqadi. Qahramonimiz alamlarini bo‘yoqlar bilan ma‘lum qiladi. U rasm chizar ekan, dastlab yorqin ranglardan foydalanadi. Rasmlari tiniq. Birinchi suratidagi qahramon yigit ancha o‘ziga ishongan va hayotdan juda ko‘p narsa umid qiladi. Ammo keyingi yillarda chizilgan rasmlarda och rang kamaya boshladi. o‘rnini to‘q ranglar egalladi. Qo‘shni uyda ijaraga turuvchi yigit cholning rasmlarida quyidagi holatni payqaydi: "Biroq bir lahzada osmon-u falakni qoplagan kuzgi qarg‘alar kabi suratlarda qandaydir mavhumlik yopirilib kirib kelardi. Qora bo‘yoqning suratdan suratga ortib borishi meni hayratga soldi, mavhumlik tasvirda ham, bo‘yoqda ham sezilardi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o‘rnini qora ranglar olayotganining guvohi bo‘ldim.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

O‘ttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarni qora rang butkul qoplab olgandi". Ko‘rinib turganidek, ranglar bu yerda cholning azobli umri va payhon etilgan umidlaridan gapiradi. Chol indamadi, suratlaridagi ranglar esa g‘alayon ko‘taradi. Yangi jamiyat olib keladigan yangicha va eng muhimi tinch va farovon hayot haqidagi bo‘htonlar qahramon qalbini parchalamadi, balki burdaladi. Umuman qayta tiklanmas qilib. Uning so‘nggi rasmi shunday chizilgan edi: "Men rasmdagi manzaradan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o‘rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu suratda maymun qarab turgan umidsiz ko‘zlarida g‘am cho‘kkan munkaygan bir cholni o‘rmon sari yetaklab ketardi"⁶.

Yozuvchi “Xaroba shahar surati” hikoyasida ham ranglardan uunmli foydalangan. Hikoyadagi tasvir etilgan suratdagi manzara, manzarani jonlantirgan ranglar jamiyatdagi holatdan, insonlarning ongidagi davriy o‘zgarishdan, beshafqat hayot battolligidan darak beradi. Suratda adib qabohat, tushkunlik, umidsizlik, xudbinlik, beparvolik kabi insoniyatni o‘zligidan mahrum etuvchi salbiy sifatlarni quyidagi ranglar bilan beradi: pala-partish ranglar, qora, kulrang, sariq aralash qo‘ng‘ir rang. Aql bovar qilmas xiyonat va sotqinlikdan so‘ng vayron etilgan shahar, johiliyat botqog‘iga botayotgan odamlarning ayanchli qismati bo‘lib surat dunyoga keladi. Hikoyada aytilishicha, uni chizgan rassom ham noma‘lum, ammo shunisi ma‘lumki, noma‘lum rassom ham biz yuqorida tahlilini keltirgan hikoyadagi chol kabi hayotga muhabbat qo‘ymoqlikni burch sifatida qabul qilgan. O‘sha burch uni mana shunday rasm chizishiga sabab bo‘lgan. Ko‘rsatilishicha, o‘lik qalblar yashuvchi shaharda birgina uyg‘oq qalb bor. Uni rassom bexosdan tegib ketgan qizil rangdek ko‘rsatadi. Rassomning ham umidi birgina shu qizil qalbdan. Hikoya va undagi xayoliy rasm orqali yozuvchi dunyo ahlini hissizlikdan saqlanishga da‘vat etadi. Buni esa ranglar vositasida chiroyli qilib uqtiradi. Insonlar robotga aylanishi kerak emas, Alloh tomonida berilgan mushtdek yurak har nega qodir.

“Tobut” hikoyasi... Barcha hikoyalarida qaysidir rang yoki ranglar jamlanmasi orqali ma‘no uqtirgan adibning bu hikoyasida aynan bir rangni asar masmunini ochib beruvchi deb keltirolmaymiz. Shaxsan o‘zim hikoyani ‘rangsiz hikoya’ sifatida qabul qilganman. Sababi, bir zamonlar giyoh ham bitmagan sahro o‘rtasida ajoyib bir shahar quriladi -- go‘zal, salobatli. Shahar aholisi quvonchdan ichiga sig‘ishmadi. Ammo to‘satdan shaharda vabo tarqaydi. Tibbiyotda kelib chiqishi noma‘lum bo‘lgan kasalliklar ‘davosiz’, ‘davosi yo‘q’ kasalliklar deb ataladi. Bu shaharda tarqagan vaboning ham kelib chiqish sababi va davolash usuli noma‘lum. Shahar aholisi bu

⁶Nazar Eshonqul. Saylanma I. akadernashr. Toshkent 2022.15-b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

kasallikdan aziyat chekmoqda. Ammo hamon davo yo‘q. kasallikni davolash uchun shaharga me‘morlar taklif qilinadi. Shifokor emas. Vaqt o‘tadi hamki kasallikning davosi topilmaydi. Ish shu darajaga yetadiki, insonlarning o‘limi hech kimni hayratga solmay qo‘yadi. Ma‘lum bo‘lishicha, shahar tobut shaklida qurilgan bo‘ladi. Qurilishidanoq dunyoning tobut misol ekanligidan xabar bergan shahar jamiki xalqni yutadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda tasvirlanayotgan rang tasviri inson ruhiyatini ochishda muhim poetik vositalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘rnida qo‘llanayotgan har rangning asar matnidagi o‘rni va ko‘lami ijodkor badiiy-estetik niyati bilan uzviy bog‘lanib badiiy yuksaklikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
2. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA‘SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
3. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
4. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
5. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
6. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.